

## MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY MUHIT VA TAZKIRALARNING VUJUDGA KELISHI

*Shamsiyeva Maxbuba Sattorovna.*

*Buxoro davlat pedagogika institute*

*, pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*, pedagogik ta'lim kafedrasida stajyor tadqiqotchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Markaziy Osiyodagi ijtimoiy muhit, uning ta'lim-tarbiyaga ta'sirini o'rganadi. Adabiyotni va pedagogikani keng tahlil qilish orqali Markaziy Osiyo olimlari tazkiralarning vujudga kelish tarixini bayon etadi. Natijalar olimlarning ishidan olingan bebaho tushunchalarni va ularning ta'lim amaliyotiga ta'sirini ta'kidlaydi hamda ularning ta'limotlarini zamonaviy pedagogikaga singdirish dolzarbligini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, tazkira, ilmiy meros, ta'lim, adabiyot, pedagogika, ijtimoiy muhit.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini tobora ko'proq qamrab olmoqda. Bunda xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlarini tiklash, uzoq va yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni mustaqillik mafkurasi asosida o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim". Zaminimizda ulg'ayib o'z asarlari bilan bashariyat tamadduniga hissa qo'shgan allomalar, mutafakkirlar, hunarmandlar va xattotlarning hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish, uni kelajak avlodga yetkazish, ular qoldirgan ilmiy va ma'naviy meros aks etgan qo'lyozmalar,

osori-atiqalar vositasida islom dinining tinchlikparvarlik, insoniylik va bunyodkorlik mohiyatini targ'ib qilish bizning asosiy burchimiz hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, adabiyot paydo bo'libdi-ki, ilm ahli, shoirlar-u fuzalolar ham yetishib chiqqan. Markaziy Osiyoda adabiyot vakillarining o'rni beqiyos. Qadimgi davrdan boshlab mana shu ilm ahlini o'rganish va ularning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rnini aniqlashda tazkirlarning ahamiyati katta. Tazkiralar turkiy va musulmon olamida, xususan, Turkiya, Turon va Eron zaminida turli tarixiy davrlarda yashab o'tgan shoirlar va ularning she'rlari jamlangan majmua sifatida doimo qadrlangan va maxsus yo'nalish sifatida rivojlanib kelgan.

Tazkiralar Markaziy Osiyoda ham ko'p asrlik tarixga ega, ularning katta qismi shoirlarning ijodiga bag'ishlangan bo'lsa-da, orasida olimlar, hukmdorlar, diniy ulamolar, shariyat peshvolarining tarixi va faoliyatiga bag'ishlangani ham bor. Tazkiralar asosan adabiyot, xususan, she'riyat tarixi yo'nalishida ko'p o'rganilgan, tarix fanida esa ulardan madaniy hayot namoyondalarini o'rganishda foydalanilsa-da, haligacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Pedagogika sohasida esa tazkiralarda juda kam o'rganilgan so'ngi yillarda tazkiralardan ta'lim-tarbiya jarayonlarini boyitish maqsadida qo'llanilmoqda. Vaholanki, ularda nafaqat shoirlar, balki hukmdorlarning faoliyati, ularning adabiyotga, madaniyatga munosabati, she'rlarda esa davr ruhi, xalqning armonlari, qalb nidosi, ijtimoiy fikr va tafakkurni anglab olish mumkin bo'lgan jihatlar, geografik, topografik ma'lumotlar juda ko'p. Tazkiralarning madaniyat tarixi va intellektual merosni o'rganishdagi o'rni va ahamiyati nihoyatda katta.

Tazkiralarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orqali nafaqat madaniy hayot, balki davr ruhini ham baholash mumkin. Ular orasida hukmdorlarning topshirig'i va homiyligida yaratilgani yoki shaxsiy tashabbus asosida avvalgi tazkiralarni davom ettirish yoki to'ldirish maqsadida yozilgani ham mavjud. Tazkiralarni asosan shoirlar, xattotlar, tarixchilar yozgan va XX asrning o'rtasigacha davom etgan.

<sup>1</sup> <http://www.e-tarix.uz/shaxslar/95403>

Pedagogika va o‘zbek adabiyoti tarixida tazkirachilik an‘analari alohida ajralib turadi. Shu o‘rinda tazkiraning lug‘aviy va atama jihatdan ma‘nolarini oydinlashtirib olsak: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida: tazkiraning lug‘aviy ma‘nosi – zikr etmoq, eslatib o‘tmoq deb aytiladi. Mazkur manbada tazkira atama jihatdan quyidagicha izohlangan: “Tazkira – Yaqin va O‘rta Sharqda adabiyotshunoslik asari. Shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot, asarlaridan parchalar keltirilgan antalogiya. Shoirlar haqidagi ma‘lumotlar alohida kichik maqola – fikrlardan iborat bo‘ladi. Unda shoirlarning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, tabiatdagi xarakterli xususiyat, qay darajada shuhrat topganligi, she‘rlaridan bir yoki ikki bayt namuna, shoirga tazkira muallifning ijobiy yoki tanqidiy munosabati, shoir umrining oxiri (vafot etgan bo‘lsa, dafn qilingan joyi) bayon etiladi”, -deb ma‘lumot beriladi. Tazkiraning eng qadimgi namunasi Abu Mansur Saolibiy yaratgan “Yatimat ud-dahr fi mahosini ahl al-asr” (“Zamona ahlining fazilatlari haqida yagona durdona”) asaridir. Bu asar (XII asr) Arab, Ajam, Movarounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Shunday tazkiralardan Muhammad Avfiy Buxoriyning fors-tojik tilida yozgan “Lubob ulalbob” (“Mg‘izlar mag‘zi”) tazkirasidir. Muhammad Avfiy mazkur tazkirasini 1221-yilda Hindistonda yozgan. Muallif asarida X-XIII asrlarda yashagan 300 shoirning tarjimai holi, ijodi haqida ma‘lumotlar to‘plagan va kiritgan. Bu asari bilan Muhammad Avfiy tazkirachilik an‘anasiga yangi tarixiy yo‘nalishga asos soldi. Tazkira va tazkirachilik rivojlana borib, turli-tuman sohalarni qamrab ola boshladi. Keyinroq tazkirachilik rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqib, bu an‘anani davom ettirishgan. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”(XV), Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (XV), Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” kabi asarlarini keltirish mumkin.

XVIII asrning 60 yillarida VozeH yozgan “Tuhfatul ahbob” tazkirasida u haqidagi ma‘lumotlar bilan birga, shoir o‘zbek tilida yozgan she‘rlarini bir devonga, fors-tojik tilida yozgan she‘rlarini bir devonga muntazam qilganini aytadi.

Xalifa Abdulaziz Hasan Ko‘chak o‘g‘li Majzub Namangoniy Farg‘ona tasavvuf maktabining namoyandasi, Turkistonda keng yoyilgan majzubiylar davrasining

asoschisidir. Unga zamonasining allomalari “roqimi hurufiy” (hurufiylik tariqatini raqam qilgan,) nisbasini bergan. U Majzub taxallusli she’rlari asosida “Devon” jamlangan. “Manoqibi ahli suluk”, “Dar tavzeh” (“Izohlash haqida”) nomli risolalar bitgan. Tasavvufda zikri jahriya (oshkora zikr) yo‘lini naqshbandiylik ta’limotiga tatbiq etgan. Uning “Devon”iga kirgan “Soqiynoma” (181 sahifa) asari so‘fiylarning jahr majlislarida o‘qilgan.<sup>2</sup>

“Tazkiratul avliyo” (“Valiylar tazkirasi”) Majzub Namangoniyning valiylar hayotiga oid muhim asarlaridan bo‘lib, “Tazkirayi Majzub Namangoniy” nomi bilan ham yuritilgan. Fors tilida bitilgan bu tazkira, asosan, muallifga zamondosh va unga yaqin tarixiy davrda yashagan tariqat arboblari va avliyolar zikriga bag‘ishlangan. Asarda tasavvufning umumiy qoidalari, suluk odobi va ayrim shayx va mashoyixlarning manqabalari bir qator hikoyatlar asosida bayon qilingan. Bu tazkira XVI-XIX asrlarda yashagan tasavvuf shayxlari, ayrim tasavvufiy maqomlar, so‘fiyona istilohlarning mazmuniga bag‘ishlangan nodir asardir. So‘fi Ollohyor, Mashrab, Mirzo Joni Jonon, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi mashhur shaxslarning hayotidan keltirilgan voqealar asar mundarijasini boyitadi. Xulosa qilib aytganda, tazkiralalar o‘z davrining ijtimoiy, madaniy va adabiy sohalarini aks ettiruvchi muhim bir yo‘nalish sifatida asrlar davomida muhim tarixiy manbalarni saqlash, qayd etib borish va kelgusi avlodlarga yetkazib berishda muhim rol o‘ynagan. Ularda nafaqat shoirlar va ularning asarlari, balki din peshvolari, ulamolar, olimlar, hukmdorlar, amaldorlar (qozi, muftiy va b.), madaniy hayot va saroy muhiti, xon va amirlarning adabiyotga munosabati, ilmfan va madaniyat haqidagi qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu tazkiralarda nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqa, shu jumladan, Eron, Hindiston, Afg‘oniston, Usmoniy turklarning tarixi va madaniyatiga oid ma’lumotlar ham mavjud bo‘lib, ular xorijiy mamlakatlarning tarixi uchun ham muhim manbaviy ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

<sup>2</sup> <http://www.e-tarix.uz/shaxslar/95403>

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
2. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVIII asr va XIX asrning ikkinchi yarmi). – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. –272 b.
3. Majzub Namangoniyning poetik mahorati. Naima Aliqulova O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi. Majzub Namangoniy. Devon. Nashrga tayyorlovchi S.Rafiddinov. Turkiston (Qozog‘iston), 2008. – 37 b. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi Hamid Sulaymon bo‘limida saqlanadi. Inv. raqamlari: 1018, 2125, 2567, 2580, 1123, 1481, 2351, 12503.
4. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. “Navoiyshunoslik”. (1-kitob) Darslik. T; 2019.
5. Yusuf Chetindog‘. Alisher Navoiy. Toshkent “Muharrir” nashriyoti. 2013.
6. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). Fors- tojik tilidan Bo‘riboy Ahmedov tarjimasini. She‘rlarni Sulaymon Rahmon tarjima qilgan. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981. 224 bet.
7. Sirojiddinov. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent, “Akademnashr”, 2011. – B.326.
8. Muhammad Siddiq Hashmat, Tazkiratush shuaro // Qo‘lyozma, O‘zR FA SHI fondi. Inv. № 138 v. 2252/I.
9. Abdulazim Shar‘iy. “Tazkirai shuaro Abdulazim Shar‘iy” // Qo‘lyozma O‘zR FA SHI fondi. Inv. № 3396/III.
10. Ne‘matulla Muhtaram “Tazkirai Hoji Ne‘matulloh Muhtaram // Qo‘lyozma, O‘zR FA SHI fondi. Inv. № 2252/II. 178<sup>b</sup>.; yana qarang S.Ayni. Namunai adabiyoti to‘chik.

### Internet saytlari

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.e-tarix.uz/shaxslar/95403>